

YUQUMLI KASALLIKLAR YUQISH YO'LLARI

Ahmedova Maxmudaxon

*Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat
salomatligi tibbiyot texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yuqumli kasalliklar turlari, ularning rivojlanish yillari, yuqish yo'llari, davolash ishlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Kimyoviy, alvon rang, interferon, retseptor, dizenfeksiyalash.*

Yuqumli kasalliklar qadim zamonlarda ham uchragan. Chinchechak, o'lat, vabo va boshqa xatarli, yuqumli kasalliklar vaqtiga-vaqtiga bilan keng tarqalib, millionlab kishilarning yostig'ini qurutgan, jamiyatga ko'p halokat yetkazgan. Yuqumli kasalliklarning mohiyati ularning kelib chiqish sabablari uzoq vaqt noma'lum bo'lib kelgan. Abu Ali Ibn Sino «Al qonun» asarida o'lat, chinchechak, qizamiq va boshqa yuqumli kasalliklarni ko'zga ko'rinxaydigan jonivorlar qo'zg'atsa kerak deb gumon qiladi. Hozirgi kunga qadar yer yuzida ma'lum bo'lgan va o'rganib chiqilgan yuqumli kasalliklarning soni 1060 dan ortiq. Shularning ba'zilari hali ham vaqtiga-vaqtiga bilan epidemiya, hattoki pandemiya shaklida keng tarqalib turadi.

Yuqumli kasalliklarning umumiy xususiyatlari:

Yuqumli kasalliklar aslida lotincha "infecio" so'zidan olingan bo'lib, "ifloslanish" degan manoni bildiradi.

Inson organizmi (makroorganizm) bilan kasallik qo'zg'atuvchi mikrob (mikroorganizm)ning malum sharoitda o'zaro tasiri oqibatida yuzaga keladigan o'zgarishlar infektion jarayon deb ataladi. Bu jarayon kasallik alomatlari ko'rinishida namayon bo'lsa yuqumli kasallik deb yuritiladi.

Yuqumli kasalliklarning o'ziga xos xususiyatlari:

Yuqumli kasallikni tirik patogen mikrob qo'zg'atadi.

Bemor o'z navbatida kasallik manbai bo'ladi va uni boshqalarga yuqtirishi mumkin.

Bemor qaysi yuqumli kasallik bilan og'rib o'tsa, uning organizmida o'sha kasallikka qarshi immunitet hosil bo'ladi va shu kasallikning qaytadan yuqishiga qarshilik ko'rsatadi. Yuqumli kasalliklar muayyan davrlar bilan, ya'ni siklik tarzda rivojlanadi va so'nadi. Vabo-o'tkir infektsion kasallik bo'lib, meda ichak yo'lini zararlanishi, suv-tuz almashinuvini buzilishi va organizmnning suvsizlanib qolishi bilan ta'riflanadi. Xindiston va Bangladesh vaboning epidemic o'chog'i sanaladi. Vaqtiga vaqt bilan kasallik qo'shni davlatlarga hatto qit'alarga tarqalib, katta epidemiya va pandemiya beradi. 1817-yildan 1925- yilagacha bo'lgan davrda Yer yuzida vaboning 6ta pandemiyasi kuzatilgan. 1965-tildan boshlab vaboning yangi 7-pandemiyasi kuzatilgan. Jumladan 1965-yilda Qoraqalpog'iston va Xorazmda ham vabo epidemiyasi kuzatilgan. Vabo antroponoz kasallik ya'ni faqat odamga hos xastalik

sanaladi. Infeksiya manbai bemor va vibrion tashuvchidir. Vibrion og`iz orqali tushib najas orqali chiqadi. Vibronning tarqalishida suv katta ahamiyatga ega. Kasallik epidemiyasi tarzida boshqa joyga kirib borganda tarqalish xususiyati shu joyning sanitariya xolati, kanalizatsiya bilan ta'minlanish xususiyati, oziq – ovqat mahsulotlarining sanitariya holati bog`liq.

Vabo vibrioni organizmga og`iz orqali kiradi. Unga birinchi to`sinq oshqozonning kislotali muhiti sanaladi. Tana harorati 37 – 38 C gacha ko`tariladi. Odatda kasallik sababsiz ich surishi va oyoq qo`llarning darmonsislansasi bilan boshlanadi. Bir necha soatdan so`ng hojatga borish ko`payib najas guruch yuvindisi ko`rinishda bo`ladi. ko`pchilik holatlarda quşish ham kuzatiladi. Quşish bilan boshlangan vaboda ko`pchilik bemorlarda qo`l oyoqningt bo`shashishi va qo`l oyoq muskullarining tortilishi kuzatiladi. Bemor ahvoli og`irlasha boradi. Vaboni oldini olish uchun avvalambor uning boshqa davlatalardan kirib kelishini oldini olish zarur bo`ladi. Buning uchun aeroportlarda, xalqaro temiryo`l stansiyalarida, daryo va avtobus yo`llarining chegara punktlarida sanitariya- nazorat punktlari tashkil etilgan. Vabo doimiy qayd etiladigan mamlakatlardan kelgan yo`lovchilarda qan kasallik simptomlari bor yoki yo`qligi so`raladi. Respublikada har bir viloyat , tuman, vaboni oldini olish va u aniqlangan taqdirda ko`riladigan chora tadbirlar majmuuni oldindan belgilab qo`yadi. U epidemiyaga qarshi favqulotta komissiya yig`ilishida muhokama qilinib hokimiyatlar tomonidan tasdiqlanadi. Kasallik aniqlangan yoki kasallikga shubha qilinganda darhol SES ga habar beriladi. Bemor darrov alohidalanadi. SES hodimlari bemor bilan suhabatlashib kasallik qaysi yo`l bilan yuqqanligini aniqlashga harakat qiladi. O`tkir infektion va karantinli kasalik hisoblanadi.o`lat arab so`zidan olingan bo`lib "Djumma" bob degan manoni bildiradi.

Kasallik har qanday yoshda uchraydi va har qanday yo`l bilan yuqadi ko`proq yovvoyi kemiruvchilar va qon so`ruvchi hasharotlar chaqqanda yuqadi. Kasallik juda og`ir o`tadi o`lim ko`rsatkichi yuqori. Kasallik manbayi yovoyi tabiat hayvonlari hisoblanadi ularning tanasida o`lat bakteriyasi bo`ladi. Inkubatsion davri 3-6 kun klinik belgilar namayon bo`lmaydi, keyinchalik tana haroratining ko`tarilishi ishtahaning yo`qligi, bosh aylanishi, bosh og`rishi, quşish zararlangan terida yiringli jarayon bilan namayon bo`ladi. Zararkunanda kemiruvchilarga qarshi kurash chora tadbirlarini yo`lga qo`yish kasallangan bemor bilan kantaktda bo`maslik umumi sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „Bolalar yuqumli kasalliklari “I.A. Qosimov 2012 yil.
2. „Infektion kasaliklar epidemialigiyasi” Profesor A.A .Zokirkodjayev 2006.